ELEKTRON TIJORAT JO'NATMALARINING BOJXONA NAZORATI VA RASMIYLASHTIRUVINI RAQAMLASHTIRISH

Pardayev To'lqin Nasirovich
Bojxona instituti professori, i.f.d. (DSc)
E-mail: tulkinpardayev65@mail.ru
Xamidov Sherzod Gafurjonovich
"Toshkent AERO" IBK boshlig'ining 1-o'rinbosari
E-mail:Sh.khamidov89@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda transchegaraviy elektron tijorat doirasidagi xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarini bojxona nazorati hamda rasmiylashtiruvidan o'tkazishning raqamli mexanizmlari tahlil qilingan. Xorijiy tajriba va milliy qonunchilik asosida oldindan ma'lumot almashish, to'rt manbali avtomatik solishtirish, "Ekspress tashuvchi" institutining huquqiy asoslarini takomillashtirish, shuningdek, jismoniy shaxslar uchun bojxona to'lovlarini oldindan hisoblash va bojsiz olib kirish normasi qoldig'ini ko'rsatishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, xalqaro pochta jo'natmasi, xalqaro kuryerlik jo'natmasi, oldindan elektron ma'lumot, bojxona nazorati, xavfni boshqarish, ma'lumotlarni solishtirish, ekspress tashuvchi, avtomatik rasmiylashtirish.

So'nggi yillarda elektron tijoratning jadal rivojlanishi xalqaro savdo tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ko'p sonli, kichik hajmli va qiymati nisbatan past bo'lgan transchegaraviy jo'natmalar ulushining oshishiga olib kelmoqda. O'zbekistonda ham elektron savdo orqali olib kirilayotgan tovarlar hajmining ortishi bojxona organlari oldiga tezkor rasmiylashtirish, fiskal manfaatlarni himoya qilish, taqiqlangan tovarlar harakatining oldini olish hamda shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq yangi vazifalarni qo'ymoqda. Bunday sharoitda bojxona nazoratini faqat xodimlar soni yoki jismoniy tekshiruvlar hajmini ko'paytirish orqali kuchaytirish yetarli samara bermaydi. Shu sababli jo'natmalar haqidagi ma'lumotlarni tovar yetib kelishidan oldin olish, ularning ishonchliligini turli axborot manbalari orqali tekshirish va nazorat resurslarini xavfi yuqori operatsiyalarga yo'naltirishga asoslangan raqamli bojxona mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

Jahon bojxona tashkilotining 2022-yilda yangilangan Transchegaraviy elektron tijorat standartlari doirasi oldindan elektron ma'lumot almashinuvi, ma'lumot sifati, xavfni boshqarish, soddalashtirilgan rasmiylashtirish va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni yagona tizimning tarkibiy qismlari sifatida belgilaydi[1]. Jahon savdo tashkilotining Savdoni soddalashtirish to'g'risidagi bitimida ham tovarlar yetib kelishidan oldin hujjatlarni qayta ishlash, xavfni boshqarish va tezkor jo'natmalar uchun soddalashtirilgan tartiblarni qo'llash nazarda tutilgan[2]. Shuning uchun elektron hujjatning mavjudligi raqamli transformatsiyaning yakuni emas, balki ma'lumotlarga asoslangan bojxona boshqaruvining boshlang'ich sharti hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarini bojxona nazoratidan o'tkazishning amaldagi raqamli mexanizmlarini baholash hamda xorijiy tajribadan kelib

[1] World Customs Organization. Framework of Standards on Cross-Border E-Commerce. Brussels, 2022. https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/global/pdf/topics/facilitation/activities-and-programmes/ecommerce/wco-framework-of-standards-on-crossborder-ecommerce_en.pdf

[2] World Trade Organization. Agreement on Trade Facilitation. https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/tfa_e.htm

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

chiqib, takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, funksional taqqoslash, analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

O'zbekistonda elektron tijorat munosabatlarining umumiy huquqiy asoslari "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-son Qonunda belgilangan[3]. Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarini bojxona nazorati hamda rasmiylashtiruvidan o'tkazishning amaldagi tartibi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-noyabrdagi 700-son qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu hujjatda jo'natmalar deklaratsiyasi bojxona organiga taqdim etiladigan elektron hujjat sifatida belgilangan, deklaratsiyani axborot tizimi orqali taqdim etish hamda jo'natmalarni "qizil", "sariq" va "yashil" yo'laklarga ajratish nazarda tutilgan[4]. Elektron deklaratsiya uchun zarur ma'lumotni savdo operatsiyasining dastlabki bosqichida olish va ishonchliligini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi.

Amaliyotda axborotning kech shakllanishi va bir manbaga bog'lanib qolishi, bojxona organiga taqdim etiladigan deklaratsiyadagi qiymat, tovar tavsifi va qabul qiluvchi haqidagi ma'lumotlar elektron bo'lishi mumkin, biroq ular elektron savdo platformasidagi buyurtma, amalda amalga oshirilgan to'lov va tashuvchining logistika ma'lumotlari bilan avtomatik taqqoslanmasa, elektron shakl ma'lumotning haqqoniyligini o'z-o'zidan kafolatlamaydi. Shundan kelib chiqib, qiymatni pasaytirib ko'rsatish, bir tijorat partiyasini bir nechta jo'natmaga bo'lish, boshqa shaxs ma'lumotlaridan foydalanish va tovarni noaniq tavsiflash xavfi saqlanib qoladi.

Prezidentning 2026-yil 27-avgustdagi PF-174-son Farmonida 2030-yilgacha inson omilisiz bojxona rasmiylashtiruvi ko'lamini 60 foizga yetkazish, shuningdek, xalqaro kuryerlik jo'natmalarini tezkor yetkazish maqsadida "Ekspress tashuvchi" institutini joriy etish vazifalari belgilangan[5]. Ushbu vazifalarni bajarish bojxona organlarining ichki axborot tizimlarini rivojlantirish bilan birga elektron savdo platformalari, to'lov tashkilotlari va kuryerlik operatorlaridan keladigan ma'lumotlarni yagona standart asosida qabul qilishni talab etadi.

Tadqiqot davomida xorijiy davlatlar tajribasining O'zbekistonda qo'llanishi mumkin bo'lgan jihatlari tahlil qilindi. Xitoy bojxona ma'muriyatining Customs Data Exchange Platform tajribasi davlatlararo ma'lumot almashinuvini tovar yetib kelishidan oldingi xavf tahlili bilan bog'laydi. Xitoy va Qozog'iston bojxona organlari o'rtasidagi tajriba loyihasi tarmoq ulanishi, ma'lumot uzatishni sinash va tajriba ekspluatatsiyasi bosqichlari orqali amalga oshirilgani ko'rsatilgan[6]. Bu tajriba xalqaro ma'lumot almashinuvini barcha ko'rsatkichlarni birdan qamrab olishdan emas, balki xavfni baholash uchun zarur minimal ma'lumotlar to'plamidan boshlash maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Koreya Respublikasining UNI-PASS tizimi deklarantlar, davlat organlari, banklar, tashuvchilar va logistika tashkilotlari o'rtasidagi jarayonlarni yagona raqamli muhitda birlashtiradi[7]. Elektron tijorat jo'natmalarida Personal Customs Clearance Code qo'llanib, shaxsning ro'yxatga olish raqami o'rniga

---

[3] O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi O'RQ-792-son "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/-6213382

[4] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-noyabrdagi 700-son "Bojxona sohasidagi ayrim tartib-taomillarni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. https://lex.uz/uz/docs/-7816457

[5] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-avgustdagi PF-174-son "Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish va bojxona ma'murchiligida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-8444993

[6] Asia-Pacific Trade Facilitation Forum. Briefs of Technological Solutions Applied by China Customs. ESCAP and ADB, 2019. https://na.eventscloud.com/file_uploads/ea65b55fe831d61360bae663830c1a84_1_MrsZhaoHuanPresentation.pdf

[7] Korea Customs Service. About UNI-PASS and Key Modules. https://www.customs.go.kr/english/cm/cntnts/cntntsView.do?cntntsId=2701&mi=8010

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

maxsus bojxona kodi ishlatiladi. Koreya Bojxona xizmatining rasmiy ma'lumotiga ko'ra, ushbu mexanizm shaxsga doir ma'lumotlarning oshkor bo'lish xavfini kamaytiradi va internet orqali xarid qilingan tovarlarning qabul qiluvchisini elektron tarzda identifikatsiya qila oladi[8]. Xitoy va Koreya tajribasining ayrim elementlari milliy bojxona tizimiga moslashtirilgan holda qo'llanishi mumkin. Xususan, ma'lumotni bir marta shakllantirish, undan qayta foydalanish va turli manbalar orqali tekshirish tamoyillari amaliy ahamiyatga ega.

Jahon bojxona tashkilotining 2025-yildagi SAFE standartlar doirasi bojxona va biznes hamkorligi hamda vakolatli iqtisodiy operatorlarni o'zaro tan olish uchun yagona yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi[9]. Elektron tijoratda bunday tamoyilni kuryerlik operatorlarining ma'lumot sifati, qonunchilikka rioya etishi va ta'minot zanjiri xavfsizligini muntazam baholash orqali moslashtirish mumkin.

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib, elektron tijorat jo'natmalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazish samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1-taklif: Elektron savdo platformalari, to'lov tashkilotlari va ekspress tashuvchilarning axborot tizimlarini Bojxona qo'mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Mazkur oldindan ma'lumot almashish platformasi orqali buyurtma identifikatori, tovar tavsifi va qiymati, to'lov holati, trek raqami, brutto og'irligi hamda jo'natish mamlakati haqidagi ma'lumotlar bojxona organiga oldindan uzatiladi. Bu jo'natma yetib kelguniga qadar xavfni baholash, ma'lumotlarni takroran kiritishni qisqartirish va rasmiylashtirishni tezlashtiradi.

2-taklif: Elektron savdo platformasidagi buyurtma, to'lov summasi, tashuvchining logistika ma'lumoti va jo'natmalar deklaratsiyasidagi ko'rsatkichlarni avtomatik solishtirish mexanizmini qo'llash. "4-Data Matching" yoki "To'rt manbali avtomatik solishtirish" mexanizmi elektron tijorat jo'natmasiga oid ma'lumotlarni to'rtta mustaqil axborot manbasi bo'yicha avtomatik solishtirish va nomuvofiqliklarni aniqlaydi. Elektron savdo buyurtmasi, to'lov, logistika va jo'natmalar deklaratsiyasi ma'lumotlarini qamrab oluvchi mazkur tizimda ma'lumotlari o'zaro mos kelgan jo'natmalar "yashil" yo'lak orqali avtomatik rasmiylashtiriladi. Aniqlangan tafovutlar xavf darajasiga muvofiq hujjatli tekshiruv yoki bojxona ko'rigiga yo'naltiriladi. Buning natijasida, bojxona nazorati yuqori xavfli jo'natmalarga qaratiladi.

3-taklif: "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-avgustdagi PF-174-son Farmonida xalqaro kuryerlik jo'natmalarini tezkor yetkazish maqsadida "Ekspress tashuvchi" institutini joriy etish vazifalari belgilangan[10]. Shu munosabat bilan ekspress tashuvchi maqomini olish, saqlash, vaqtincha to'xtatish va bekor qilish tartibini, shuningdek, mazkur subyektlarning huquq va majburiyatlarini qonunchilikda aniq belgilash zarur. Bunda ekspress tashuvchilarni bojxona qonunchiligiga rioya qilish darajasi, moliyaviy barqarorligi, axborot xavfsizligi, jo'natmalarni kuzatish imkoniyati hamda oldindan elektron ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq taqdim etishi asosida baholash lozim. Belgilangan mezonlarga barqaror rioya qilgan operatorlarga xavfi past jo'natmalarni avtomatik chiqarish, ustuvor rasmiylashtirish va bojxona ko'riklari ulushini kamaytirish kabi soddalashtirishlar berilishi mumkin. Shu

[8] Korea Customs Service. Issuance of Personal Customs Clearance Code. https://www.customs.go.kr/english/cm/cntnts/cntntsView.do?cntntsId=5502&mi=10801

[9] World Customs Organization. SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade. Brussels, 2025. https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/global/pdf/topics/facilitation/instruments-and-tools/tools/safe-package/safe-framework-2025_en.pdf

[10] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-avgustdagi PF-174-son "Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish va bojxona ma'murchiligida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-8444993

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

bilan birga, noto‘g‘ri ma’lumot taqdim etganlik uchun javobgarlik hamda berilgan soddalashtirishlarni bekor qilish asoslari qonunchilikda mustahkamlanishi zarur.

4-taklif: Bojxona to‘lovlarini oldindan hisoblash va bojsiz olib kirish normasi qoldig‘ini kuzatib borish tizimini yaratish. Jismoniy shaxslar xalqaro pochta va kuryerlik jo‘natmalari orqali buyurtma qilgan tovarlari bo‘yicha qancha bojxona to‘lovi hisoblanishini hamda amaldagi hisob davrida bojsiz olib kirish normasining qolgan qismi haqida oldindan ma’lumot berish tizimi yo‘q. Bu holat fuqarolar uchun qo‘shimcha moliyaviy noaniqlikni yuzaga keltirib, bojxona organlari va kuryerlik operatorlariga takroriy murojaatlarning ortishiga sabab bo‘ladi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida xalqaro kuryerlik jo‘natmalari haqida ma’lumot olish xizmati mavjud[11]. Biroq mazkur xizmatda bojxona to‘lovlarini oldindan hisoblash hamda bojsiz olib kirish normasi qoldig‘ini ko‘rsatish funksiyalari yo‘q. Shu bois amaldagi xizmatni bojxona to‘lovlari kalkulyatori va shaxsiy norma qoldig‘ini kuzatish moduli bilan kengaytirish hamda bojsiz olib kirish normasidan oshish ehtimoli yuzaga kelganda foydalanuvchiga oldindan elektron xabarnoma yuborilishi taklif etiladi. Bu esa, bojxona to‘lovlarini hisoblashning shaffofligini oshiradi, fuqarolarga xarid qiymatini oldindan baholashi va bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida yuzaga keladigan tushunmovchiliklarni kamaytirib, elektron savdo ishtirokchilarining bojxona tartib-taomillariga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanib, transchegaraviy elektron tijoratning qonuniy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, oldindan ma’lumot almashish va to‘rt manbali avtomatik solishtirish xavfi past jo‘natmalarni tezkor rasmiylashtirishga, “Ekspress tashuvchi” institutining aniq huquqiy mezonlari esa operatorlar mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Jismoniy shaxslar uchun bojxona to‘lovlari va bojsiz norma qoldig‘ini ko‘rsatuvchi xizmatning joriy etilishi hisob-kitoblarning shaffofligini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Customs Organization. Framework of Standards on Cross-Border E-Commerce. Brussels, 2022.
2. World Trade Organization. Agreement on Trade Facilitation.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi O‘RQ-792-son “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-noyabrdagi 700-son “Bojxona sohasidagi ayrim tartib-taomillarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-avgustdagi PF-174-son “Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish va bojxona ma’murchiligida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
6. Asia-Pacific Trade Facilitation Forum. Briefs of Technological Solutions Applied by China Customs. ESCAP and ADB, 2019.
7. Korea Customs Service. About UNI-PASS and Key Modules.
8. Korea Customs Service. Issuance of Personal Customs Clearance Code.
9. World Customs Organization. SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade. Brussels, 2025.

[11] Jismoniy shaxslar nomiga kelgan xalqaro kurerlik jo‘natmalari to‘g‘risida ma’lumot. https://my.gov.uz/uz/service/717

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.